



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Diloram Babajanova O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
2. Ойбек Абдимўминов БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
3. Sarvar Axmedov XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
4. Nafosat Botirova ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
5. Дмитрий Епифанов АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
6. Istora Jo‘rayeva O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
7. Xamdani Matyakubov TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
9. Sevara Pulatova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
10. Yoqubjon Tayronov TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
11. Dildora Tursunova HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
12. Солижон Қудратов СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63



Sahodat Bo‘riyevna Murtazova,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri, prof.v.b.
Otabek Bahodir o‘g‘li Ziyodov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN

For citation: Sahodat B. Murtazova, Otabek B. Ziyodov. FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF UZBEK ENTERTAINING ART AND THE ACTIVITIES OF ITS FAMOUS REPRESENTATIVES. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.43-47

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978655>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda estrada san‘atining kirib kelishi va shakllanish tarixi va uning yetuk namoyandalari faoliyati tarixiga doir ma‘lumotlar umumlashtirilgan. Shuningdek o‘zbek estrada san‘atining yetuk vakillarining repertuarlariga oid faktlar tahlil qilingan. O‘zbek musiqa san‘ati rivojida Zokirovlar sulolasining o‘rni va faoliyatiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Sulola asoschisi Karim Zokirovning (1912-1977) o‘zbek musiqa folklori, mumtoz musiqasiga qo‘shgan hissasi yoritib berilgan. O‘zbek kinoteatrlari qoshida tashkil etilgan orkestrlar faoliyati haqida va bu orkestrlarning O‘zbekistonda estrada san‘atining keng yoyilishi va rivojlanishida qo‘shgan hissasi ilmiy ma‘lumotlar asosida yoritilgan.

Kalitli so‘zlar: estrada, san‘at, madaniyat, orkestr, namoyanda, musiqa, xonanda, opera, Ikkinchi jahon urushi, sulola, repertuar, folklor, ansambl, kompozitor.

Саходат Буриевна Муртазова,
Заведующий кафедрой «История и общественные науки»
Экономико-педагогического университета, проф.в.б.
Отабек Баходир угли Зиёдов,
преподаватель кафедры «История и общественные науки» Экономико-
педагогического университета

ИЗ ИСТОРИИ СТАНОВЛЕНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ИСКУССТВА И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЕГО ЗНАМЕНИТЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье обобщены сведения об истории появления и становления эстрадного искусства в Узбекистане и истории его зрелых представителей. Также анализируются факты,

связанные с репертуаром зрелых представителей узбекской эстрады. Также обсуждаются роль и деятельность династии Закировых в развитии узбекского музыкального искусства. Освещен вклад основателя династии Карима Закирова (1912-1977) в узбекский музыкальный фольклор и классическую музыку. На основе научных данных освещена деятельность оркестров, организованных при узбекских кинотеатрах, и вклад этих оркестров в широкое распространение и развитие эстрадного искусства в Узбекистане.

Ключевые слова: эстрада, искусство, культура, оркестр, исполнение, музыка, певец, опера, Великая Отечественная война, династия, репертуар, фольклор, ансамбль, композитор.

Sahodat B.Murtazova,

Head of the Department of History and Social sciences of the
University of History and Pedagogy, Acting Professor

Otabek B.Ziyodov,

Teacher of the Department of History and Social sciences
of the University of History and Pedagogy

FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF UZBEK ENTERTAINING ART AND THE ACTIVITIES OF ITS FAMOUS REPRESENTATIVES

ABSTRACT

This article summarizes information on the history of the introduction and formation of pop art in Uzbekistan and the history of its mature representatives. Also, the facts related to the repertoires of mature representatives of Uzbek pop art are analyzed. The role and activities of the Zakirov dynasty in the development of Uzbek music art are also discussed. The contribution of Karim Zakirov (1912-1977), the founder of the dynasty, to Uzbek musical folklore and classical music is highlighted. The activity of the orchestras organized under the Uzbek cinemas and the contribution of these orchestras to the wide spread and development of pop art in Uzbekistan are covered on the basis of scientific data.

Index Terms: stage, art, culture, Orchestra, show, music, singer, opera, World War II, dynasty, repertoire, Folklore, Ensemble, composer.

Dolzarbligi:

O'zbek estrada san'ati haqida so'z yuritishdan avval "Estrada" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tish o'rinli. "Estrada" so'zi - fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "estrade" - taxta supa, minbar degan ma'noni bildiradi.

Estrada - bu san'atning bir turi bo'lib, turli shakldagi ijrochilarni cholg'uchi, ashulachi, badiiy o'qish, raqs, sirk san'ati nomerlari va boshqa ijrochilarni birlashtiruvchi jamoaga nisbatan qo'llanilgan. Bu haqida I.Akbarovning "Musiqqa lug'ati" kitobida atroflicha izoh berib o'tilgan.

O'zbekistonda musiqaning estrada janrida ijod qiluvchi jamoalarning tuzilishi asosan urush yillariga to'g'ri keldi. 1942 yil Toshkentning Samarqand ko'chasida joylashgan 351-sonli harbiy qurilish uchastkasi qoshidagi "Mehnat armiyasi" bazasiga Leonid Samal rahbarligida estrada orkestri tuzilgan. L.Samal Rostov musiqqa bilim yurtida ta'lim olgan bo'lib, saksofon, fortepianoni zo'r mahorat bilan chala olgan. Orkestrda L. Lis, L.Samal, V.Panorovski, A.Kravetslar faoliyat olib bordi. Ammo urushdan keyingi og'ir yillarda orkestr jamoasi tarqab ketdi[1].

Urushdan keyingi yillarda Toshkent kinoteatrlari qoshida estrada orkestrlari tashkil etildi. Birinchi bo'lib shahardagi "Iskra" kinoteatrida 1946 yil A.Pozdnyakov rahbarligida shunday orkestr tuzildi [14]. Shundan so'ng "Yosh gvardiya", "Vatan" kinoteatrlarida park, restoranlarda ham tashkil etildi. Bu orkestrlar O'zbekistonda estrada san'atining keng yoyilishi va rivojlanishida o'ziga xos o'rin egalladi. Ushbu janr rivojida D.I.Shtern, L.I.Suxov, D.M.Sokolov, V.F.Koptevskiy, B.Bogarov, N.I.Slezkin kabilar muhim rol o'ynadi.

1949 yildan "Iskra" kinoteatri huzuridagi orkestrni D.I.Shtern boshqardi. Bu orkestr 1966 yil Toshkent zilzilasi qadar samarali ijod qilib, orkestrda eng iqtidorli musiqachilar to'plangan edi.

D.I.Shtern shunday hikoya qiladi: “Orkestrimiz repertuarining asosi bo‘lib,- deya eslaydi Shtern,- sovet estrada musiqasi shunday o‘zbek navolari ediki, biz ularni estrada kuyiga solishga imkon qadar harakat qilganmiz. Ko‘pincha aranjirovkalarni men yozardim, Moskvadan orkestronkalkarni buyurtma tarzida olardik, I.O.Dunayevskiy, B.Mokrousov, V.Solovyovlarning qo‘shiqdari mavzusida juda ko‘p turli terma va fantaziyalar bor edi”[14].

Toshkentlik muxlislar bu orkestrlarni sevib, katta ishtiyoq bilan konsertlarga kelardi. Keyinchalik “Iskra” kinoteatrining orkestri Toshkentning eng mahoratli jamoasi mavqeiga ega bo‘ldi. Repertuar hajmi ham kengayadi. Konsert dasturlariga mumtoz asarlar, opera, operettalardan ariyalar, “Tohir va Zuhra” musiqiy dramalardan parchalar, S.Yudakovning asarlari kiritila boshlandi va hokazo, ammo jamoaning asosiy maqsadi O‘zbekiston estrada musiqasini targ‘ib qilish edi. Jamoa a‘zolaridan Nasim Hoshimov (O‘zSSR xalq artisti), Asad Azimov (O‘zSSR xalq artisti), Sasson Benyaminov (O‘zSSR xalq artisti), Neyla Hoshimova (O‘zSSR xalq artisti), Kommuna Ismoilova (O‘zSSR xalq artisti), Sattor Yarashev (O‘zSSR xalq artisti), Nazira Ahmedova (O‘zSSR xalq artisti) kabi san‘atkorlar respublikaning eng zo‘r xonandalari bo‘lib yetishdi [14].

1958 yili “Vatan” kinoteatri orkestri estrada teatri qoshida tuzilgan “O‘zbekiston estrada orkestriga” qo‘shilib ketdi. V.Koptevskiy ijodida ham yangi-yangi asarlar paydo bo‘ldi. U o‘zbek xalq musiqa ohanglari asosida asarlar yarata boshladi. Bu haqida L.I.Suxov shunday deydi: “Koptevskiy, O‘zbekistonda ilk bor xalq navolarini olib, ularni tuba sozi uchun bastalab, so‘ng Yevropa sozlaridan foydalangan holda, uni konsert pesasiga aylantirdi, bu albatta yangilik edi. Shundan so‘ng bunday aranjirovkalarni ko‘pchilik yarata boshladi. Shunday qilib, estrada musiqasida yangi sharqona yo‘nalishga asos solindi”[14].

V.Koptevskiy Toshkentda ko‘p yillar R.Glier nomli musiqa maktab internatda ishlab ko‘plab shogirdlar tayyorladi. Jumladan, D.Hasanov (musiqa internati o‘qituvchisi), Yu.Gribov (ittifoq radio va televedeniyesi orkestri a‘zosi), N.Ivayenko (O‘zbekiston estrada orkestrining birinchi trubachisi), Yu.Parfyonov (jahonning eng zo‘r trubachilaridan biri) shular jumlasidandir.

O‘rganilganlik darajasi:

Mavzuni yoritishda turli matbuot materiallaridan hamda arxiv ma‘lumotlaridan foydalanildi. Xususan: I.Akbarovning musiqa lug‘ati kitobidan musiqaga doir terminlarning mazmun mohiyatini ochib berishda foydalanildi. Turkiston. (1999 yil, 1 may), Guliston (2004-yil) jurnallaridan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari (2001 yil, iyun.)dan sohaga oid ma‘lumotlarni o‘rganishda foydalanildi. O‘zbek musiqa san‘ati rivojida katta hissa qo‘shgan ijodkorlar faoliyati faktlar asosida o‘rganildi. Masalan. o‘zbek musiqasini rivojlanishida Zokirovlar sulolasining o‘rni beqiyosdir. Sulola asoschisi Karim Zokirov (1912-1977) bo‘lib, uning ijodi serqirraliligi bilan xarakterlidir. U o‘zbek musiqa folklori, mumtoz musiqa namunalari, Yevropa opera obrazlarini mohirona ijro etdi. K.Zokirov o‘z ijodiy faoliyati davomida “Xalima”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “O‘zbekiston qilichi” singari musiqali dramalarda, “Bo‘ron”, “Gulsara”, “Ulug‘bek”, “Mahmud Torobiy”, “Dilorom”, “Maysaraning ishi” kabi operalarda rollar ijro etdi. Uning opera yo‘nalishidagi ijodi milliy o‘zbek opera ijrochilik maktabining shakllanishida juda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi[9].

Karim Zokirovning farzandlari Botir, Luiza, Navfal, Farrux, Ravshan, Jamshid Zokirovlar o‘zbek milliy musiqa san‘ati, ayniqsa estrada yo‘nalishiga katta hissa qo‘shdilar. Botir va Farrux Zokirovlar nodir ovoz sohibi, betakror xonanda, qator qo‘shiqdar muallifi sifatida nom qozondilar[9].

Botir Zokirov (1936-1985) o‘zbek zamonaviy professional estrada qo‘shiqchiligining namoyandalaridandir. U o‘zbek qo‘shiqlarini birinchi marta estrada orkestri jo‘rligida ijro etib, professional estrada qo‘shiqchiligining yorqin namoyandasiga aylandi. Uning tashabbusi bilan 1958 yili “Yoshlik” ansambli bazasida O‘zbekiston Davlat estrada orkestri tuzildi[2]. B.Zokirov qo‘shni respublika musiqachilari bilan hamkorlikda ijod qilib, o‘zbek qo‘shiqchilik san‘atini yangi-yangi an‘analar bilan boyitdi. Masalan, u Aleksandr Ginzburg bilan birgalikda xalq ijodi va estradani yaqinlashtirish loyahasini ishlab chiqdi. Fransuz kompozitori va qo‘shiqchisi Enriko Massiasining “Do‘st haqida qo‘shiq”, “O‘lkam qizlari” qo‘shiqlarini fransuz tilida ijro etib, ko‘pchilikni lol

qoldirdi. Fransiya gazetalari uni mashhur fransuz qo'shiqchisi Sharl Aznavur bilan tenglashtirishdi. B. Zokirov 1972 yili O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, "Myuzik-xoll" estrada orkestrini tuzdi. Ittifoqda o'sha davrda faqat ikkita Moskva va Leningradda "Myuzik-xoll" bor edi[2].

Botir Zokirov 1959 yil Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasida faol ishtirok etib, uni mashhurlik shoxsupasiga chiqargan arab kompozitori Dorish Al-Attoshning "Arab tangosi" qo'shig'ini ijro etdi[3].

Toshkent myuzikxollining tashkilotchisi, yakkaxon va badiiy rahbari bo'lib, ijro etgan qo'shiqlarini deyarli barchasini tugal, teran lirik-dramatik asar darajasiga ko'tara oldi. B.Zokirov ijodida o'zbek kompozitorlarining romans va qo'shiqlari muhim o'rinni egalladi. U M.Burxonovning "Maftun bo'ldim", "Namedonam chi nom dorad", I.Akbarovning "Yor kel", "Ra'no", "Gazli", "Seni eslayman", S.Jalilning "Majnun monologi", "Kechalar yulduz sanab" kabi qo'shiqlarni mohirona ijro etdi. Shuningdek, uning ijrosida hind, eron, livan, italyan, fransuz qo'shiqlari ham kuylandi. Fransuz kompozitorlari E.Masias, J.Brel, Hind kompozitori Choudhuri, R.Shanker, misrlik Farid al-Atash kabilarning musiqiy asarlarini ham ijro etdi[12].

Farrux Zokirov (1946 yilda tug'ilgan) O'zbekiston estrada san'ati-ning yorqin yulduzlaridan biri. "Yalla" estrada ansambliga 1976 yildan buyon rahbarlik qilib keldi. Ushbu ansambl repertuariga o'zbek xalq laparlari, yalla va qo'shiqlarini kiritdi. "Yo'l bo'lsin", "Yallama yorim", "G'ayra-g'ayra", "Handalak", "Qilpillama", "Ganja Qorabog'" kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir. U estrada san'atida musiqaning folklor janridan foydalanish yuzasidan ham salmoqli ishlarni olib bordi[12].

Mustaqillik yillarida musiqaning milliy estrada [10] sohasini rivojlantirish, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi yetuk musiqiy asarlar yaratish va yosh estrada xonandalarining kasbiy va ma'naviy kamol topishiga imkon yaratish maqsadida davlat tomonidan qator chora-tadbirlar belgilanib, hayotga tatbiq etildi. O'zbekistonda musiqaning estrada yo'nalishida Farrux Zokirov, Nasiba Abdullayeva, Yulduz Usmonova, Kumush Razzoqova, Ravshan Komilov, G'ulomjon Yoqubov, Ozodbek Nazarbekov, Hosila Rahimova, Azim Mullaxonov, Larisa Moskolyova va boshqa yulduzlar ijod qildi.

Estrada sohasini rivojlantirish uchun, avvalo, ushbu yo'nalishning ta'limiga alohida ahamiyat berildi. Masalan, 1996 yil M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida estrada musiqasi fakulteti, Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi estrada-sirk studiyasi negizida Estrada-sirk kolleji va viloyatlardagi qator san'at o'quv yurtlarida estrada bo'limlari tashkil etildi.

Estrada sohasidagi eng jiddiy muammolardan biri bu-bastakorlik va ijrodagi "yuzakilik", "qaroqchilik" uslubida "ijod" etilgan asarlar sonining ortib borishida bo'ldi. Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan milliy estrada san'atidagi salbiy tendensiyalarga chek qo'yish va sohani jahon andozalari darajasiga ko'tarish maqsadida 2001 yil 26 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 272-sonli "Estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[11].

Estrada yo'nalishida ijod qilayotgan bir qator xonandalar faoliyatida estrada yo'nalishi an'anaviy milliy musiqa madaniyati bilan uyg'unlashib kelganligini ko'rish mumkin. Ko'r-ko'rona g'arb musiqasiga taqlid qilish va milliy an'anaviy musiqa madaniyatimizning buzilish hollari ham yo'q emas.

Musiqaning ushbu yo'nalishini rivojlantirish maqsadida milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish kengashi tashkil etildi. Kengashning mas'ul kotibi Yo'ldosh Norbo'tayev kengash haqida shunday deydi: "Kengashning asosiy vazifasi o'zbek qo'shiqchiligini doimiy tahlil qilib borish, uni yanada rivojlantirish, yosh san'atkorlarning o'z iste'dod va mahoratini to'la namoyon etishi uchun qulay shart-sharoit va zarur imkoniyatlar yaratish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, mazmunan teran, badiiy yuksak asarlarni keng targ'ib qilish, milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bo'sh va zaif asarlar tarqalishining oldini olish hisoblanadi"[8].

Tadqiqot natijalari:

Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish kengashi Nizomiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari, "O'zbeknavo" estrada birlashmasining mintaqaviy bo'limlari bilan hamkorlikda joylarda faoliyat ko'rsatayotgan malakali estrada xonandalari, bastakorlar, rejissyorlar, shoirlar, badiiy so'z ustalari, musiqashunoslar, jurnalistlar hamda ma'naviyat va ma'rifat sohasi uchun mas'ul tashkilotlar va muassasalar vakillaridan iborat. Tadqiqot natijasida milliy estrada san'atini rivojlantirish hamda muvofiqlashtirish kengashining mintaqaviy bo'limlari tuzilganligi, shu bilan birga taniqli estrada xonandalari repertuarlarini boyitish, tartibga solish va targ'ib qilish, mamlakat miqyosidagi muhim ommaviy tadbirlarga ma'naviy yuksak darajadagi musiqiy asarlarni tavsiya qilish maqsadida estrada san'atini rivojlantirish jamg'armasi qoshida "Estrada qo'shiqlar fonotekasi" tashkil etilib, hozirgacha 220dan ortiq xonandaning 5300 dan ziyod asari to'planganligi ma'lum bo'ldi. [8].

Xullas, O'zbekiston musiqa madaniyati tarixida estrada janrining kirib kelishi, o'zbek estrada san'atining rivoji borasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Soha rivojida o'zbek estrada san'atining yetuk namoyandalarining o'rni beqiyos bo'ldi. Bu borada estrada san'atining atoqli vakillari, ularning ijod namunalari bugungi kunda yosh avlodni musiqa san'ati, xususan estrada san'atining rivojlanishida o'ziga xos o'ringa egaligini alohida ta'kidlash o'rinli. San'atning sofliqini saqlab, o'ziga xos transformatsiya yuz berganligini, bugun o'zbek estrada san'ati ham jahonga yuz tutayotganligini qayd etish lozim.

Iqtibislar/Сноски/Referencrs:

1. Военные и послевоенные годы. Ведущие музыканты в эстрадном жанре Узбекистана: Д.И.Штерн, В.Ф.Коптевский, Л.И.Сухов, Н.И.Слѣзкин.// <http://www.jazz.uz/history-jazz/27>.
2. Jannat Makon // 2004, aprel-may. – B. 65.
3. Jo'rayev A. Qaydasan, azizim, qaro ko'zligim //Teatr, 2006, №2. – B.28-29.
4. Jaz- (ing. Jazz-djaz)- XIX asr oxiri- XX asr boshlarida AQShda paydo bo'lib, tez vaqt ichida boshqa davlatlarga tarqalgan musiqa. Jazga Amerika negrlari musiqasining ba'zi xususiyatlari, chunonchi: ritm, lad, cholg'ulash, tovush chiqarish va boshqalar ta'sir qilgan. Akbarov I. Musiqa lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 103.
5. Седых Т. Джазовое искусство в Узбекистане //san'at.orexca.com/rus/ archive/z-08/uzjaz.shtml.
6. Turkiston./1999 yil, 14 aprel.
7. Turkiston./1999 yil, 1 may.
8. Tojiddinova S. Yurakka yaqin qo'shiqlar ko'pmi?//Hurriyat. 2008, 5 noyabr.
9. Tursunova G. Bir sulola ta'rifi // Guliston, 2004, №3. – B.5.
10. Estrada- fransuzcha so'z bo'lib, estrade-taxta supa, minbar degan ma'noni bildiradi. Estrada - bu san'atning bir turi bo'lib, turli shakldagi ijrochilarni (cholg'uchi, ashulachi, badiiy o'qish, raqs, sirk san'ati nomerlari v.b.)birlashtiruvchi tashkilot. Akbarov I. Musiqa lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1997. -B. 359.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari. 2001 yil, iyun. №245-285. Toshkent shahri, 2001 yil.-B.125.
12. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent, 2002. – B.28.
13. Qashqadaryo VDA, 390-jamg'arma, 1-ro'yxat, 407-ish, 45-varaq.
14. <http://www.jazz.uz/history-jazz/27>.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000